

## MUSIQA MADANIYATI TARIXI XALQIMIZ O‘TMISH TARIXINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.

**Ozoda Latipova,**

JDPI I-kurs talabasi

**Karimov Saxob,** ilmiy rahbar,

Musiqiy ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek diyorida musiqa san’ati va uning paydo bo‘lishi bir necha ming yilliklarga borib taqalishi bu esa madaniy hayot yurtimizda qadim-qadimdan yuksak darajada bo‘lgani haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Materialistik, ideyalistik, dealiktika, musiqa, nay, soz, suyak, O‘rta Osiyo, Kushonlar saltanati, Samarqand, Urgut, Xuroson, Xuttalon.

Hayot qarama-qarshiliklardan iborat. Ya’ni kun va tun, issiq va sovuq, shirin va achchiq, yaxshi va yomon va hokazo... Shunday ekan dunyoni bilish to‘g‘risida ham turli tuman fikrlar, g‘oyalar, dunyoqarashlar bo‘lishi tabiiy. Garchi falsafada asosan bir-biriga qarama-qarshi oqimlar ko‘p bo‘lsada ularning ikkitasi, ya’ni materialistik va ideyalistik dunyoqarash asosiy oqim hisoblanadi. Bu oqimlar dunyoning paydo bo‘lishi to‘g‘risida turlicha g‘oyalarni ilgari suradi. Materialistlar avvalo materiya, yani borliq vujudga kelganligini, ong esa inson paydo bo‘lganidan keyin uning yashashi uchun kurashi natijasida evolyusion tarzda vujudga kelganini, ya’ni muomala madaniyati, turmush tarzi insonnig tabiatga bo‘lgan munosabati shakllanishi natijasida vujudga kelganligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradilar.

Ushbu g‘oyaga qarshi bo‘lgan idealistlar fikriga ko‘ra avvalo ong mavjud bo‘lgan va u borliqni yaratgan. U borliqni to‘rt unsurdan yani, suv, havo, tuproq va olovdan yaratgan. So‘ngra insonni yaratgan. U insonni tuproqdan yaratib, bundan tashqari qolgan unsurlarni ham uning tanasiga jo etgan, yani inson tanasiga suv va havo, issiqlik baxsh etgani uchun zaruriy

ong berganligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradilar. G'oyalarning bunday qarama-qarshiligi dealiktikaga ya'ni falsafa faniga asos soldi.

Musiqqa to'g'risida ham yuqorida biz aytib o'tgan oqimlar turlicha fikrdadirlar. Ular musiqaning inson hayotida tutgan o'rni, mazmuni to'g'risida quydagicha fikrlarni ilgari suradilar.

“Musiqqa - bu tovushlar yordamida anglashilgan fikr bo'lib, har bir musiqqa asari aniq mazmun mohiyatiga ega bo'lishi lozim. Har bir musiqqa asari musiqiy tovushlar, ohanglar va so'zlar vositasida insonlarga nimanidir uqtirishni, hikoya qilishi, ko'rsatishi lozim.

Idealistik dunyoqarash nuqtai nazaridan qaralsa, musiqqa ilohiy ne'mat bo'lib, u inson hayotini, uning turmush tarzini bezash uchun Olloh tomonidan inoyat qilingandir. Olloh insonni yaratib uning yashashi uchun suv, havo, tuproq va olovni ne'mat qilib, o'z ongi bilan ushbu unsurlardan samarali foydalanishni o'rgandi. Yani tuproqdan, suv, havo va issiqlikdan foydalanib dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va boshqa tirikchilik vositalarini o'rgandi. Musiqqa ham huddi shunday ilohiy ne'matlardan biri hisoblanadi.

Har ikkala dunyoqarash nuqtai nazaridan qaralganda ham musiqqa inson hayotida muhim o'rin tutuvchi, uning ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi asosiy vositalardan biridir. Uning paydo bo'lishi to'g'risida ham fikrlar xilma-xil bo'lsada, musiqaning nihoyatda ko'hna san'at turi ekanligi, uning paydo bo'lishi va taraqqiyoti tarixi insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liq ekanligi, jangu jadallar davrida uning ham taraqqiyotiga putur yetishiga yuqoridagi g'oyalar e'tiroz bildiradi olmaydi.

Dunyo xalqlarining musiqiy amaliyotidan bizga shu narsa ma'lumki har bir xalqning o'z kuy yo'nalishlari va uni bastalash usullari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari musiqiy asarlariga e'tibor berganimizda o'zbek milliy musiqasi tojik, qoraqalpoq, uyg'ur xalqlari musiqalariga hamohang bo'lishini anglashimiz mumkin. Har bir xalqning musiqqa madaniyati tarixi shu xalqning umumiy tarixidan kelib chiqib, asrlar suronida toblandi va takomillashib bordi.

O'zbek xalqi ham qadim tarixdan ne-ne hodisalarni boshdan kechirgan. Eramizdan oldingi III - asrda yuz bergan grek yunon bosqini so'ngra eramizning VIII asridagi arab istilosi, keyinchalik XIII asr boshlaridagi mug'ul istilosi va nihoyat XIX asr II yarmidagi rus istilosi fikrimizning dalilidir. Har bir istilo xalqimizning ma'naviyat va madaniyat taraqqiyotini yuz yillab orqaga surib tashlagan. Chunki bu istilolar natijasida ma'naviyat va madaniy boyliklarimiz bo'lmish, kitoblar, qo'lyozmalar, ma'naviy obidalar yondirib kul qilindi yoki umuman yo'q qilindi. Hozirgi davrlarda chet mamlakatlar kutubxona va muzeylaridan topilayotgan xalqimiz tarixiga doir kitoblar, qo'lyozmalar va moddiy boyliklarimiz sanalmish turli tarixiy buyumlar fikrimizning dalilidir. Bunday yo'qotishlar barcha jabxalar kabi musiqa san'atimizga ham dahldor. Vayronagarchiliklar oqibatida qanchadan-qancha san'at buyumlari, kitoblar va xalqimizning madaniy darajasini belgilab beruvchi noyob buyumlar, cholg'u sozlari yo'qolib ketdi.

Bugungi kunda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda topilayotgan arxeologik yodgorliklar muhim rol o'ynamoqda. Chunonchi qadimda ajdodlarimiz musiqa san'atining faqatgina qo'shiqchilik va raqs turi bilangina emas, balki cholg'u ijrochiligi bilan ham shug'ullanganligini topilayotgan ashyoviy dalillar isbotlab bermoqda. Masalan: Samarqand viloyati Urgut tumani Mo'minobod qishlog'ida olib borilgan qidiruv ishlari natijasida ayol qabridan turli zeb-ziynat buyumlari va ular orasida topilgan nay sozi, uning tarixini o'rganish yuqoridagi xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi. Topilgan nay sozi suyakdan ishlangan nihoyatda bejirim naqshlar bilan bezalgandir. Uning tarixini olimlar ilmiy ekspertiza qilish yo'li bilan aniqladilar va 5-6 ming yilga yaqin ekanligini aytmoqdalar. Bu soz hozir Samarqand shahridagi Respublika madaniy yodgorliklar muzeyida saqlanmoqda. Bu topilma qadimgi madaniyatimiz to'g'risida tasavvurimizni nihoyatda boyitdi. Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bundan besh ming yil oldin yashagan ajdodlarimiz ham amaliy san'at, ya'ni buyumlarga naqsh chizish, jilo berish san'atiga ega bo'lganlar.

Agar cholgʻu sozlarining yasalishi va ularni ijro etishdagi murakkabliklarni nazarda tutsak, oʻsha davrda albatta, urib chalinadigan cholgʻu sozlarining koʻpchiligi yogʻochdan, teri va boshqa shunga oʻxshashlardan yasalganligi uchun ham bizgacha yetib kelmagan. Nay sozi esa, suyakdan yasalganligi uchun shuncha yil yer ostida saqlangan, hatto temir ham bunchalik uzoq davrga bardosh berolmaydi.

Oʻlkamizda Kushonlar davriga oid cholgʻu sozlarini ham alohida qayd etish lozim. Uzoq olib borilgan tadqiqotlar natijasida arxeolog E.Gulamova Xurosonning Xuttalon qismidan gʻijjak va ud chalayotgan musiqachilar haykalchalarini topishga musharraf boʻldi. Mutahassislar xulosasiga koʻra ushbu haykalchalar IX asrga taʼluqli boʻlib, Oʻrta Osiyo xalqlari ajdodlari boʻlmish baqtryaliklar, sugʻdiylarda oʻzga xudolar qatori, musiqa va qoʻshiq madaniyati yuqori qadrlanganligi oʻsha davr hukmdorlarining saroyda mahsus sanʼatkorlar saqlanayotganligidan, ularga barcha qulayliklar yaratib berilganligidan bilsak boʻladi. Hozirgi Tojikistonning “Chilhujra” nomli qalʼasidan topilgan nay sozi ilk Oʻrta asrlardan darak bermoqda. Yana shu erdan topilgan bir soz torli boʻlib, IV-V asrlarga taaluqlidir. Aniqlanishicha u 4-ta sim tortilgan torli cholgʻudir.

Demak, Kushonlar saltanati davrida Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa hayotida urib chalinadigan: doira, nagʻora, qoʻshnogʻora torli cholgʻular: arfa, chang, ud, rubob, doʻmbira kamonli soz: qoʻbiz, gʻijjak puflab chalinadigan cholgʻu: nay, surnay, karnay, sibizigʻlar mavjud boʻlgan. Bunday deyishimizga topilayotgan arxeologik va yozma manbalarni oʻrganish asos boʻlmoqda.

Shularni inobatga olgan holda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq milliy qadryatlarimizga, urf-odatlarimiz, anʼanalarimiz va boshqa bir qancha sohalar kabi musiqa sanʼatini ham qayta tiklashga alohida eʼtibor qaratildi. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy bir qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri-bu taʼlim tarbiyadir. Bunda musiqa sanʼatining oʻrni gʻoyatda beqiyosdir.

Shunday ekan mamlakatimizda komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylangan hozirgi sharoitda maʼnaviyatimizning

ajralmas qismi bo'lgan musiqiy madaniyatimizning o'rni beqiyosdir. Zero, musiqa, qo'shiq har doim xalqimizning jon ozig'i bo'lib kelgan. Ulug' shoirimiz G'afur G'ulom san'atni "Odamlarning teng yarmi yuragi joni" deb ta'riflayotganda yoki sevimli shoirimiz Saida Zunnunova musiqa san'atining tarixiy xaqiqatni ifodalashda katta imkoniyatga ega ekanligini ta'kidlab:

*Tarixdan so'ylama, menga, ey odam,*

*Bitta chalib bergin «Cho'li Iroq»ni-*

deganda qanchalar xaq edi!

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.I.Karimov.Yuksak ma'naviyat yengimas kuch. Toshkent. Ma'naviyat 2008-yil
- 2.A.Jabborov,S.Begmatova, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018-yil
- 3.T E Solomonova.O'zbek musiqasi tarixi.Toshkent.O'qituvchi 1981-yil





